



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



OTLARNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI VA NUTQDAGI FUNKSIONAL IMKONIYATLARI

Jo'raboyeva Sabrina Shahzod qizi

Navoiy davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada otlarning grammatik kategoriyalari hamda ularning nutqdagi funksional imkoniyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy o'zbek tilshunosligida muhim o'rin tutgan R. Sayfullayeva, M. Hamrayev va yana bir qancha olimlarning ilmiy qarashlari asos qilib olingan. Ushbu nazariy masalalarini chuqurroq anglash amaliy nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ot so'z turkumi, grammatik kategoriya, son kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, funksional imkoniyat, nutq, o'zbek tili grammatikasi, Zamonaviy o'zbek tili*

Abstract: *This article provides a linguistic analysis of the grammatical categories of nouns and their functional potential in speech. The research is based on the scholarly views of R. Sayfullayeva, M. Hamrayev, and several other prominent scientists in modern Uzbek linguistics. Understanding these theoretical issues serves to further develop practical speech skills.*

O'zbek tili grammatik tizimida ot so'z turkumi muhim o'rin egallaydi. Otlar borliqdagi predmet, shaxs, hodisa va tushunchalarning nomini bildirishi bilan tilning asosiy leksik qatlamini tashkil etadi. Ushbu maqolada otlarning grammatik yoritiladi. Zamonaviy o'zbek tili grammatikasida otlarning grammatik kategoriyalari-son, kelishik va egalik kabi shakliy xususiyatlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Til-jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy munosabatlari ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Til tizimida so'z turkumlari alohida o'rin tutadi va ular orasida ot so'z turkumi semantik hamda grammatik jihatdan mavqega ega. Otlar borliqdagi narsa-buyumlar, shaxslar, joy nomlari, hodisalar va mavhum tushunchalarni ifodalab, nutqning mazmuniy asosini tashkil etadi.

Otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan birlik son shakli va ko'plik son shaklida qo'llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikni ajratilmaydigan predmetni anglatadi: *ruchka, inson, uy, tog', o'quvchi* kabi. Birlik son shaklida qo'llangan ot maxsus grammatik ko'rsatkichga ega emas. Shu boisdan ham otning bunday affiks olmagan shakli grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaraladi. Otlarda grammatik ko'plik son shakli -lar affiksi bilan shakllanadi.

Ko'rinadiki, otlardagi birlik ma'nosi va ko'plik ma'nosi hamda bularni ifoda etuvchi shakllar yig'indisi son kategoriyasini hosil qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Otlarda son kategoriyasini birlik va ko'plik son shakliga ega bo'lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo'llaniladigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga abstract (mavhum otlar) otlar(sevgi,ishonch,ko'ngil),donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar(un,suv,yog',tuz,guruch),yakka bir predmetni anglatuvchi otlar(til,bosh,yurak),juft predmetni anglatuvchi otlar(ko'z, qosh, qo'l, etik, paypoq), atoqli otlar(Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo) kabilar kiradi.Ayrim hollardalar affiksi yuqoridagi so'zlarga qo'shilganda ko'plik ma'nosidan

tashqari kuchaytiruv-ta'kid,hurmat,umumlashtirish,birgalik,turi,navi,mo'llik ma'nolarni anglatadi:

1. Bugun otamlar bog'imizdagi bir-biridan shirin mevalarni yig'ib olishadi.(hurmat ma'nosi)

2. Zilol suvlar eram kabi bog'-u bo'stonlar(mo'llik ma'nosi) 3.Munisalarning oilasi juda ahil.(umumlashtirish,birgalik)

Egalik kategoriyasi.Ot turkumi egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini "keyingi otni oldingi so'zga bog'lash"tarzida xususiylashtiradi.Matn va birikuvchi so'zning sematikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalashi mumkin.Lekin" keying otni oldingi so'zga bog'lash" kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi.Ot turkumining egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini xususiylashtirishdagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz:

Ot turkumida egalik kategoriyasining ishlatilishida ikki holat bor:

1. Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi.Bu vaqtda egalik kategoriyasidagi so'z qaratqich kelishigidagi so'z bilan keladi:mening kitobim,sening kitobing,uning kitobi.Kishilik olmoshi va egalik kategoriyasi qo'shimchasi shaxs va sonini ifodalaydi.Shu boisdan qaratqich kelishigidagi olmosh tushurib qoldirilishi mumkin:kitobim,nutqing.

Egalik kelishigidagi so'z ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham qo'llanilishi mumkin:talabalardan biri.Bunda ko'pincha qaralmish miqdor yoki belgi ifodalovchi so'z bilan ifodalangan bo'ladi.

2. Egalik affiksi qaratqich kelishikni talab qilmaydi.Bunda ham 2 holat farqlanadi:

a) erkin birikmada bosh keliskdagi so'zni boshqaradi:Navoiy ko'chasi,Dehqonobod tumani.

b) egalik kelishigidagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib ravishga o'tadi:kechasi,kunduzi;modalga o'tadi:chamasi,yaxshisi.

Kelishik kategoriyasi.Bosh kelishikdagi ot kim?,nima?,qayer? So'roqlariga javob bo'lib Ega:

Ilhom — eng yosh o'qituvchi. Darvoza tepasiga sandiq qo'yilgandi. Hol:

Shu kuni Abdulla allamahalgacha xayol surib yurdi. (O'.Umar.) Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda. (Maq.) Vositasiz to'ldiruvchi:

Murotali qazib qo'yg'an chuqurlarga ko'chat o'tqazardi. (Sh.Rash.) Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi. (Maq.)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Qaratuvchi aniqlovchi:

Ko‘k yuzini yulduzlar band etdi. (J.Abd.)

Cho‘l qo‘ynlari pishay-pishay deb turibdi. (S.Ahm.) Sifatlovchi:

Shu payt elektr qo‘ng‘iroq asta jiringladi. (H.G‘ul.) Izohlovchi:

Daryodan o‘tgan kun general Pogodin harbiy kengashga chaqirildi. (I.Rah.)

Ot kesim (Otam — ishchi), undalma (Siz baxtlisiz, Olimjon aka), atov gap (Ko‘m- ko‘k dala) vazifasida kelganda, uni Bosh Kelishikda deyish to‘g‘ri emas. Aytganimizdek, bunda kelishik umumiy grammatik ma‘nosiga xos vazifa yuzaga chiqmagan.

Qaratqich Kelishikdagi otda Kelishik Kategoriyasi umumiy grammatik ma‘nosi “otni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so‘zga bog‘lash” tarzida xususiylashadi:

Mohidil inson tabiatining naqadar murakkabligiga yanada chuqurroq tushuna bordi. Manbalarda Qaratqich Kelishikning belgili va belgisiz ko‘rinishi farqlanadi. Bosh Kelishikning Kelishik Kategoriyasi shakllari o‘rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya “belgisiz Qaratqich Kelishikni Bosh Kelishik sifatida qarashni taqozo qiladi”.

Masalan, nonning uvoqi — Qaratqich Kelishigida, non uvoqi — Bosh Kelishikda. Tushum Kelishikdagi ot gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan ot vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi. “Otga obyekt tusini berish va uni fe‘lga vositasiz to‘ldiruvchi sifatida bog‘lash” — Tushum Kelishigi umumiy grammatik ma‘nosining ot turkumidagi xususiylashuvi.

Manbalarda Tushum Kelishigining ham belgili va belgisiz ko‘rinishi farqlanadi. Bosh Kelishikning Kelishik Kategoriyasi shakllari o‘rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya “belgisiz Tushum Kelishik”ni ham Bosh Kelishik sifatida qarashga olib keladi.

Masalan, nonni yemoq — Tushum Kelishikda, non yemoq — Bosh Kelishikda.

Ot turkumida Chiqish Kelishigi ko‘makchi bilan kelishi mumkin: taomdan keyin, ishdan so‘ng.

Chiqish Kelishikdagi otning vazifalari:

- a) vositali to‘ldiruvchi: Gulnorning o‘zidan so‘rab ko‘ramiz? («Saodat»).
- b) o‘rin holi: Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi. (P.Qod.).
- d) sabab holi: Yulduz taajjubidan o‘zini bosolmadi (M.Muh.).
- e) payt holi: Ikkalasi yoshlikdan birga o‘shigan (M.Qor.).
- f) ko‘makchilar bilan birga ajratilgan bo‘lak vazifasi: Qamishkapaliklar odamlarni nomlari bilan atashdan ko‘ra, xususiyatlari bilan ta‘riflaydilar (A.Qah.).

Chiqish Kelishik o‘z vazifasini yo‘qotishi mumkin: [birdan], [to‘sa tdan], [qo‘qqisdan].

Ma‘nosi kuchsizlanishi va gap qisqarishi natijasida kesim vazifasida tuslovchi olishi mumkin: Qishloqdanmisizlar? Qisqaruv hodisasi Chiqish Kelishikdagi so‘zning ega bo‘lib kelishini ham ta‘minlaydi: Bu kitoblardan menda ham bor.

Jo‘nalish Kelishigidagi ot ish-harakat yo‘nalgan predmetni anglatadi: maktabga, ishga, zavodga, ukamga. Uning variant affiksi [-ga] bo‘lib, nutqda turli fonetik, poetik, dialektal variantga ega bo‘ladi: kurakka, tuproqqa, buyona, qayg‘a.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Jo'nalish Kelishigi ko'makchi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: uyga ketdi – uy tomon ketdi, ukasiga oldi – ukasi uchun oldi.

Jo'nalish Kelishigi Chiqish, Tushum va O'rin-payt kelishiklari vazifalarini ham bajaradi: Biz hashamatli bino oldiga(da) to'plandik. Bu gapga(ni) tushunmadim. Ko'rsatishga(dan) uyaldim.

Jo'nalish kelishigidagi ot gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: Mohidil shoshilinch safarga otlana boshladi. (J.Abd.) Dildor Nafisaning oppoq chaqnoq ko'zlariga havaslanib boqdi. (H.G'ul.)

b) o'rin holi: Bahor ko'zi to'la yoshni yashirmoq uchun eshikka yugurdi. (Sh.Rash.) Nayman cho'llariga, to'qaylariga chinakam bahor keldi. (S.Ahm.).

Kesimlik kategoriyasi. Bog'lama. Kesimlik kategoriyasi ot turkumida o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. U bu turkumda ikki ko'rinishga ega bo'ladi:

a) hozirgi zamon ko'rinishi;

b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi.

Ko'p holda ot turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi. Bog'lama kesimlik kategoriyasini ot va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik mo'slashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l, [bo'lmoq], [hisoblanmoq], [sanalmoq], [deyilmoq] kabi mustaqil fe'l bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining ot turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

ishchi + man | ishchi + miz ishchi + san | ishchi + siz ishchi + 0 | ishchi + (lar)

[-man], [-san], [-miz], [-0], [-lar] kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: (ishchi emasman), (ishchi emassan). Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi: Men ishchi (0). Men yahudiy (0) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'llar va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi:

ishchi + edim | ishchi + edik ishchi + eding | ishchi + edingiz ishchi + edi | ishchi + edi(lar)

Bunda ikki shakl (edi va shaxs/son) kesimlikning to'rt tur ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin:

ishchi + bo'laman (bo'ldim). Misollar: Men shu zavodda uch yil ishchi bo'ldim (o'tgan zamon). Men shu zavodning tajribali ishchisi bo'laman (hozirgi zamon). Sen shu zavodda ishchi bo'lasan (kelasi zamon). Sanaladi, hisoblanadi so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib otga kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Otlarning nutqdagi funksional imkoniyatlari juda keng bo'lib, ular gapda deyarli barcha gap bo'laklari vazifasida kela oladi. Otlarning asosiy vazifalarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Kelishik shakllari orqali ifodalanadigan vazifalar



Otlarning turli kelishik qo'shimchalarini olishi ularning gapdagi sintaktik rolini belgilaydi:

To'ldiruvchi vazifasida: Otlar chiqish kelishigi (ChK) va jo'nalish kelishigi (JK) shakllarida kelib, harakat yo'nalgan predmetni yoki vositani bildiradi.

Misol: "Gulnorning o'zidan so'rab ko'ramiz?" (ChK - vositali to'ldiruvchi).

Misol: "Dildor Nafisaning oppoq chaqnoq ko'zlariga havaslanib boqdi" (JK - vositali to'ldiruvchi).

Hol vazifasida: Otlar gapda turli hol turlarini (o'rin, payt, sabab, maqsad, miqdor) ifodalaydi.

O'rin holi: "Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi". Payt holi: "Ikkalasi yoshlikdan birga o'sishgan".

Maqsad holi: "Bahor Po'latni kuzatishga yasanib chiqqan edi". Sabab holi: "Yulduz taajjubidan o'zini bosolmadi".

2. Kesimlik va bog'lama imkoniyatlari

Otlarning eng muhim funksional imkoniyatlaridan biri — ularning kesim vazifasida kelishidir. Buning uchun maxsus vositalar qo'llaniladi:

Kesimlik affiksleri: Otlarga shaxs-son qo'shimchalari (masalan, -man, -san, -miz) qo'shib, hozirgi zamon kesimligini hosil qiladi.

Misol: "Men ishchiman".

To'liqsiz fe'llar va bog'lamar: O'tgan zamon va kelasi zamon ma'nolarini ifodalash uchun edi, bo'lmoq, hisoblanmoq kabi bog'lamalardan foydalaniladi.

Misol: "Men shu zavodda uch yil ishchi bo'ldim".

3. Ko'makchilar bilan birikishi

Otlar nafaqat kelishiklar, balki ko'makchilar bilan ham birikib, ma'no ko'lamini kengaytiradi.

Masalan, Chiqish kelishikdagi ot ko'makchi bilan kelishi mumkin: taomdan keyin, ishdan so'ng.

Jo'nalish kelishigi ba'zan ko'makchilar bilan sinonim bo'lib keladi: uyga ketdi – uy tomon ketdi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida otlarning kelishik kategoriyasi grammatik tizimning muhim bo'g'ini bo'lib, otning gapdagi sintaktik vazifalarini aniqlashda yetakchi rol o'ynaydi. Kelishiklar orqali otlarning fe'l va boshqa so'z turkumlari bilan munosabati, gapda bajaradigan ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi hamda hol kabi vazifalari yuzaga chiqadi. Bu hol kelishik kategoriyasining faqat shakliy emas, balki semantik va funksional jihatdan ham boy ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, chiqish va o'rin-payt kelishiklarining o'ziga xos grammatik ma'nolari hamda ularning nutqdagi xususiylashuv holatlari tahli Otlar nutqda nafaqat narsaning nomini bildiradi, balki kelishik va bog'lamar yordamida gapning mazmuniy markazi (kesim) yoki uni to'ldiruvchi qismlari bo'lib xizmat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qiladi.1 qilindi. Ayrim kelishik shakllarining belgisiz ko‘rinishda bosh kelishik bilan almashina olishi, shuningdek, kelishiklarning bir-biriga yaqin vazifalarda qo‘llanishi o‘zbek tilida kelishik tizimining moslashuvchan va dinamik xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, otlarning kelishik shakllari gap qisqarishi, ma’no kuchsizlanishi yoki kontekst ta’sirida kesim, undalma va atov gap vazifalarida ham namoyon bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa kelishik kategoriyasini faqat morfologik hodisa sifatida emas, balki sintaktik va uslubiy jihatdan ham keng imkoniyatlarga ega birlik sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Umuman olganda, otlarning kelishik kategoriyasini chuqur o‘rganish o‘zbek tili grammatik tizimining ichki qonuniyatlarini anglash, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonida grammatik bilimlarni samarali yetkazish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov A.O‘zbek tili morfologiyasi.- Toshkent:Fan,1995.
2. Kononov A.N.Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika.- M.-L: Izd-vo AN SSSR,1960.
3. RAhmatullayev SH.Hozirgi o‘zbekadabiytili (darslik).- Toshkent:Universitet,2006
4. Chernyavskiy M.N.Latinskiy yazik i osnovimedititsinskoy terminologi.- M.:Meditcina,2004.
5. Hamrayev M.Hozirgi o‘zbek tili.-Toshkent:Moliya-iqtisod,2007.
6. Sayfullayeva R. va boshq.Hozirgi o‘zbekadabiytili.-Toshkent:Fan va texnologiyalar,2009.
7. Tronskiy I.M.Istoricheskaya grammatika latinskogo yazika.-M.:Indrik,2001.
- 8.Arseniyeva S.A. I dr.Latinskiy yazik.-M.:Visshaya shkola,2002.